DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-46 Pages: 426-430

Oriental Journal of Philology



ON SOME FEATURES OF TRANSLATION OF THE ARABIC PRESS

Shirin I. Zaynutdinova
Senior Lecturer
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: sirinzajnutdinova@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Arabic press, newspaper, news, headline, translation-analysis.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article discusses the linguistic features of the Arabic-language media, in particular the design of headlines in the Arabic-language press and the style of their translation.

ARAB MATBUOTI TARJIMASINING AYRIM XUSUSIYATLARI XUSUSIDA

Shirin I. Zaynutdinova
Katta o'qituvchi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: sirinzajnutdinova@gmail.com
O`zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: arab matbuot tili, gazeta, xabar, sarlavha, tarjima-tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab matbuoti tilining o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, arab matbuoti xabarlarida sarlavhalarning berilishi va ularni tarjima qilishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ПЕРЕВОДА АРАБСКОЙ ПРЕССЫ

Ширин И. Зайнутдинова
Старший преподаватель
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: @sirinzajnutdinova@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская пресса, газета, новость, заголовок, перевод-анализ.

Аннотация: В данной статье рассматривается языковые особенности арабских средств массовой информации, в частности, оформление заголовков в арабоязычной прессе и стиль их перевода.

Arab davlatlari matbuoti juda boy va nihoyatda turli-tuman bo‘lib, juda katta tirajlarda kunlik, haftalik gazeta va jurnallar nafaqat arab tilida, balki boshqa bir necha chet tillarida ham nashr qilinadi. Bular orasida Al-Ahrom, Ash-Sha‘b, Al-Axbor (Misr); Al-Vatan, Ar-Riyod (Saudiya), As-Savra, Al-Vatan (Suriya), Al-Vatan (Quvayt) gazetalari mashhurdir. Ma’lumki, arab tili shevalari ko‘p va ular bir-biridan keskin farq qiladi. Lekin arab matbuoti televideniyedan farqli o‘laroq, faqat arab adabiy tilida berib boriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur masalaning amaliy jihatlari borasida o‘zbek, arab, rus, tadqiqotchilari, xususan T.Sh. Qodirov, I.N. Fateyeva, Z.M. Shokirova, Sh.I. Zaynutdinova, N. Axmadjonova; M.Z. Maxdjubi, Yu.B. Xuseyni, F. Xassan; A.L. Spirkin, E.P. Yakovenko, I.D. Ibragimov, N.A. Mayburov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot materiallarining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o’rganildi.

Natijalar. Arab matbuot tilining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar orasida ko‘zga eng yaqqol tashlanadigani – arab matbuotida beriluvchi maqolalarga qo‘yiladigan sarlavhalarning bir butun jumla qilib berilishidir. Bunda bir maqola uchun nafaqat birgina jumla, balki bir necha qisqa yoki uzun gapli ikki-uch qatorli sarlavhalar ham qo‘yiladi. Ma’lumki, o‘zbek matbuotida maqolalar sarlavhalari, odatda, qisqa gap yoki so‘z birikmasi tarzida beriladi. Mazkur sarlavha orqali maqola matnining mazmuniga iloji boricha qiziqish uyg‘otish va e‘tiborni jalb qiishga ko‘proq ahamiyat qaratiladi. Shuning uchun ham sarlavhani qo‘yishda ko‘proq asosiy mazmunni yashirishga, sarlavhaning sirli bo‘lishiga urg‘u beriladi (Zaynutdinova, 2024, p. 231).

Misol tariqasida quyida o‘zbek matbuoti materiallaridan bir necha sarlavhalarni keltirib o‘tamiz.

Fermer yangi tarmoqni yo‘lga qo‘ydi (Xalq sozi, 2024, p. 1)

Mazkur sarlavha qo‘yilgan maqolada farg‘onalik bir fermerning o‘z tumanida mamlakatimizda u qadar rivojlanmagan tarmoq bo‘lmish tuyachilikni rivojlantirish ishini yo‘lga qo‘ygani haqida xabar qilinadi.

Yana bir misol:

Yoshlarga imtiyozli kreditlar (Xalq sozi, 2024, p. 2)

Bu xabarda esa Yoshlar Ittifoqi va Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi tomonidan yoshlarning tadbirkorlik qilishiga oid seminar-trening hamda tanlov o‘tkazilgani, tanlovda g‘olib

bo'lgan yoshlarga o'z tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishlari uchun moliyaviy ko'mak olish huquqini beruvchi sertifikatlar topshirilgani haqida so'z yuritiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'zbek matbuotida xabar va maqolalarga matnning mazmunini to'liq va mukammal yoritmaydigan qisqa sarlavhalar qo'yiladi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad, matnga o'quvchining diqqatini qaratish va uni matn mazmuniga qiziqtirishdir. Arab tilida chiquvchi gazeta-jurnallarda esa ko'pincha buning butunlay aksini ko'ramiz. Ya'ni sarlavha maqolaning butun mazmun-mohiyatini o'zida aks ettira oladi. Buning uchun bir maqolaga bir emas, bir nechta sarlavhalar qo'yiladi.

Masalan:

جمعية المهندسين تستعد لمعرض الإسكان السادس برعاية صباح الأحمد

الجاسم: الخطة الإسكانية السادسة تشتمل على خمسة مشاريع

١٠٧٧ وحدة سكنية في مشروع المنقف و٥٥٠٠ وحدة غرب أمغرة و ٣٢ ألف وحدة سكنية بالمدن التوابع و ٢٠ ألفا غرب الدوحة و ٢٧٨٤ بالصبية الجديدة (al-Vatan, 2022, p. 7) ...

Saboh Al-Ahmad homiyligi ostida tashkillashtirilayotgan oltinchi turar-joylar ko'rgazmasiga Arxitektorlar uyushmasi tomonidan tayyorgarlik ko'rilyapti.

Josim: Oltinchi turar joylar ko'rgazmasi rejasi besh loyihani o'z ichiga oladi.

Manqaf loyihasida 1077 ta, Amg'ara mintaqasi g'arbida 5500 ta, boshqa shaharlarda 32 mingta, Doha shahrining g'arbida 20 mingta, Yangi Sibya shahrida 2784 ta turar-joy birligi loyihalari.

Ushbu sarlavha qo'yilgan maqolada xabar qilinishicha, Quvayt Vazirlar Mahkamasi raisining birinchi o'rinbosari va Tashqi ishlar vaziri Shayx Saboh al-Ahmad homiyligida Quvayt Arxitektorlar uyushmasi Marketing va ko'rgazmalarni tashkil qilish qo'shma shirkati bilan hamkorlikda oltinchi turar-joylar ko'rgazmasini tashkillashtirish va o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rishni davom ettirmoqda. Bu shirkat Quvaytning Regency Palace mehmonxonasida 30-sentabrdan 4-oktabrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'z ishini olib boradi.

Yana bir misol:

مجلس الأمن يجري تصويتا لأفرادها غدا

الدول الخمس الكبرى تتفق على نظام عقوبات جديد على العراق (al-Vatan, 2022, p. 5) ...

Xavfsizlik Kengashi ertaga o'z a'zolari uchun ovoz beradi

Beshta yirik davlat Iroqqa qarshi yangi sanktsiyalar tartibi (nizomi) to'g'risida kelishib oldi

Mazkur sarlavha qo'yilgan maqolada keltirilishicha, Birlashgan millatlar tashkilotining qarorgohi bo'lgan Nyu York shahridan xabar qilinadi. Ushbu xabarda Xalqaro xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish besh yirik mamlakat (Buyuk Britaniya, Fransiya,

Rossiya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari) Iroqqa qarshi yangi sanksiyalar nizomini tuzishni rejalashtirayotganliklari, shu boisdan ham bu masala mazkur davlatlar o‘rtasida kelayotgan payshanba kuni ovozga qo‘yilishi haqida aytiladi. Sanksiyalarga sabab, Iroq mavjud tartibga xilof ravishda qurol-yarog‘lar importi bilan shug‘ullangan.

Yana bir misol:

طالبت العراق بتطبق القرارات و خصوصاً في شأن الأسري

ماليزيا تدعو الكويتيين إلى الاستثمار في بهانج و تقدم منحاً دراسية للطلاب في مجال الإعلام

(al-Vatan, 2022, p. 5-6)

Iroqdan asirlar masalasi bo‘yicha o‘z qarorlarini bekor qilishi talab qilindi. Malayziya quvaytliklarni Pahang shtatiga investitsiyalar kiritish hamda ommaviy axborot vositalari sohasida talabalarga stipendiyalar taqdim qilishga chorlamoqda.

Bu xabarda esa, Malayziyadagi Quvayt elchisi Fahd al-Mutiyriy va Malayziyaning Pahang shtati hokimi Sulton Ahmad Shoh al-Musta‘in Billahning uchrashuvi, bu uchrashuv chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni, ayniqsa, investitsiyalar, turizm, ta’lim sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish va mustahkamlashga e’tibor qaratilgani haqida so‘z boradi. Shuningdek, xabarda Fahd al-Mutiyriy Malayziya Ta’lim vaziri Muso ibn Muhammad bilan ham uchrashgani va ular ikki davlat o‘rtasida ta’lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirish masalasini muhokama qilganliklari, Muso ibn Muhammadning Malayziya hukumati bu yerda o‘qishni istovchi quvaytlik talabalarga stipendiyalar berajagini ma’lum qilgani ham aytiladi. Yana xabarda ma’lum qilinishicha, Quvaytning Malayziyadagi elchisi va Malayziya Vazirlar Mahkamasi raisi Hoji Ahmad Abdulloh Badaviy uchrashuv o‘tkazganlar, mazkur uchrashuv chog‘ida Badaviy Iroqning, Quvaytga hujum qilish va, ayniqsa, quvaytlik asirlar muammosi bilan bog‘liq o‘z qarorlarini bekor qilishi lozimligini ta’kidlagan.

Demak, yuqoridagi sarlavhalarni qisqacha tarzda quyidagicha tarjimada berish mumkin:

- birinchi sarlavha: Quvaytda yangi turar-joylar ko‘rgazmasi, Saboh Al-Ahmad boshchiligidagi yangi uylar ko‘rgazmasi,

- ikkinchi sarlavha: Iroqqa qarshi yangi nizom, Besh davlatning Iroqqa qarshi yangi bitimi, Besh yirik mamlakat Iroqqa qarshi;

- uchinchi sarlavha: Quvayt va Malayziyaning investitsiyalar sohasidagi hamkorligi, Malayziya va Quvayt o‘rtasidagi aloqalarning yangicha ko‘rinishi, Malayziyaning Quvaytga taklifi va h.k.

Xulosa. Umuman olganda, aynan mana shunday holatlarda sarlavhani o‘zbek tiliga tarjima qilish, ya’ni sarlavhani o‘zbek tilida ifodalash muammosi yuzaga keladi. Chunki arab tilidagi gazetaning bir nechta gapdan iborat uzundan-uzun sarlavhasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga o‘girish noqulaylik tug‘diradi, ya’ni uni o‘qishning o‘zi biroz vaqtni oladi va o‘quvchida

qiziqish uyg‘otmasligi mumkin. Qiziqarliroq, sirliroq bo‘lishi uchun sarlavhani qisqa so‘z birikmasi yoki sodda yig‘iq (yoki yoyiq) gap tarzida bergan ma’qul bo‘ladi. Bunda o‘quvchining vaqti ham tejaladi, shuningdek, sarlavha tez va yaqqol ko‘zga tashlanib o‘quvchining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxat:

1. Al-Watan newspaper (2022). Sahifat alwatan. – el-Kuwait, 76 p. (in Arabic)
2. Fateeva I.G., Shokirova Z.M. (2004) Working on the Arabic press language. Arab matbuot tili ustida ishlash. – Tashkent: TSDHI, 112 p. (in Uzbek)
3. People's Word Newspaper (2024). Xalq so‘zi gazetasi. – Tashkent, 12 p. (in Uzbek)
4. Spirkin A.L. (2009). The concept of style in national Arabic studies // Army and society. Ponyatiye stilya v natsional'noy arabistike // Armiya i obshchestvo. – Moscow: Research Center Science-XXI. – P. 20-31 (in Russian)
5. Yakovenko E.V. (2019). Arabic language. Practical course of translation. Arabskiy yazyk. Pravkticheskiy kurs perevoda. – Moscow: Vostochnaya literatura. – 464 p. (in Russian)
6. Zaynutdinova Sh.I. (2024). The developmental paradigm of translation theory. Tarjima nazariyasining rivojlanish paradigmasi // Til va adabiyot, Issue 9. – Tashkent: UzMU, 307 p. (in Uzbek)
7. Zaynutdinova Sh.I. (2021). Working on political and social texts. Study guide. Siyosiy-ijtimoiy matnlar ustida ishlash. O‘quv qo‘llanma. – Tashkent: TDSHU, 154 p. (in Uzbek)